

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:18 (67079)

2016-yil

2-may




[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

DARGOHIMIZ  
YUKSAK, ULUG'VOR.  
USTOZLARNING  
ILMI BIZGA YOR!



Farg'onan viloyatining Furqat tumanidagi 2-umumta'lim məktəbida bugungi kunda 56 nafar pedagog 836 nafar o'quvchiga bilim berib kelmoqda. Ta'lif maskani estetik fanlar yo'nalishi bo'yicha viloyatda «Mahorat məktəbi» hisoblanadi. Ushbu dargoh tumanda axborot kommunikatsion texnologiyalarini o'rGANISH bo'yicha tayanch məktəbi, «Oila-mahalla-ta'lif muassasasi» hamkorligi konsepsiysi bo'yicha namunali o'quv maskani sanaladi.



## «KAMALAK» JILOSI

Xorazm viloyatida «Kamalak» bilimdonlari ko'rik-tanloving respublika bosqichi bo'lib o'tdi



Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosi doirasida umumta'l'm maktabalarida ham qator loyihamar, ijodiy tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Jumladan, «Kamalak» bilimdonlari ko'rik-tanlovi ham bu borada alohida ahamiyatga ega.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy Kengashi tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirning quy'i bosqichlarida 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 492 ming o'g'il-qiz ishtirok etdi.

Unda tanishitirish mahorati, «Kamalak»chilar faoliyatini va yoshlarning faoliyigini yanada oshirish, ularda yetakchilik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan ijodiy loyihamar taqdirmoti namoyish qilindi.

Tanloving yakuniy bosqichida 14 jamoa ishtirok etgan bo'lsa, shundan Xorazm viloyatining «Kamalak» zukkolari» jamoasi 1-, Toshkent viloyatining «Kamalak» jamoasi 2-, Qoraqalpog'iston Respublikasining «Kamalak» yulduzları» jamoasi 3-o'ringa sazovor bo'lischdi.

O'z muxbirimiz

Sirdaryoda  
bo'lib o'tgan  
ko'rik-tanlov o'zgacha  
nishonlandi.

## DOIRALAR SADOSI

Olamni childirmaning sho's sadolari bosib ketgandek edi, go'yo. Guliston tashkil etilgan «Zarb» ko'rik-tanloving viloyat bosqichida «Barkamol avlod» bolalar markazlari, umumta'l'm hamda musiqa va san'at maktabalaridagi to'garak a'zolaridan iborat 48 nafr yosh doirachilar o'z mahoratini namoyish etishdi.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, «Barkamol avlod» bolalar markazi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi hamkorligida tashkil etilgan mazkur tanlovda Guliston shahridagi 2-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Komiljon Sodiqjonov yakkaxon doirachilar o'ttasida g'oliblikni qo'iga kiritdi. Guruhlar o'ttasidagi bellashuvda ushbu maktabning «Zarb-ziyo» jamoasi birinchilikni egalladi. G'oliblar respublika bosqichida bellashadi.

Xurshida SULAYMONOVA



O'rta ga tushishga hech kimning jur'ati yetmasdi.

Kutilmaganda Raimboy degan yigit davraga chiqib, mehmon polvon ustidan g'alaba qozonib, mahallamiz sha'nini saqlab qolgandi. Uning bu ishi ancha paytgacha odamlar tilidan tushmadi. Lekin yillar o'tgani sari asta-sekin unutilib ketdi.

## POLVONLARI E'ZOZLANGAN YURT

Kuni kecha poytaxtimizdag O'zbekiston Milliy kutubxonasida Polvonlar Milliy Markazi tomonidan 26-28-may kunlari Urganch shahrida bo'lib o'tadigan «Siz polvonlaringizni bilasizmi?» Respublika tanlovini yuqori saviyada o'tkazishga bag'ishlangan matbuot anjumanida qatnashar ekanman, yuqoridagi voqeja magnit tasmasidek xotiramdan o'tdi.

Katta sport maydonini tark etgach, nomlari unutilib ketgan yakkakurashning mashhur polvonlari nomini qayta tiklash va tarixga abadiy muhrlash, shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, o'ziga ishonch, sportga muhabbat tuyg'ularini uyg'otish kabi ezgu maqsadlar yo'lida harakat qilayotgan Markaz faoliyati diqqatga

molkidir. Ayni chog'da bu ezgu harakatlar xorijiy davlatlarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Har bir viloyatdagi mashhur polvonlar hayotiga bag'ishlangan 14 jildi «Polvonlar ensiklopediyasi» chop etilishi ajoyib tuhfa bo'ldi.

2011-yildan buyon ta'lim muassasalarida o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlovda bir milliondan ziyod o'quvchilar ishtirok etib kelmoqdalar.

Eng asosiyisi, yoshlarimiz qalibda o'z polvonlari bilan faxrlanish hissi paydo bo'ldi. Ular ota-bobolaridan o'z hududlarida yashab o'tgan pahlavonlar haqida so'rab, chiroli albomlar, slaydlar tayyorlamoqdalar. Endi ularning nomi unutilib ketmaydi.

Yusuf ABDULLAYEV

Ertaga bobojonimning quchog'i gullarga to'ladi. Nega, deysizmi? Chunki ulug' bayram arafasida tavallud topgan bobojonimiza atab chiroli gullarni saralaymiz.

## BIZ - BUVAMNING QUVONCHI



U kishining ajoyib fazilatlari dan yana biri badiiy asarlarni ko'proq mutolaa qilishida. Javondagi ko'plab kitoblarda «Murtazo SULTONOVA samimi ehtirom ila», deya yozilgan mualif dastxatlarini ko'rib, ularga havasimiz keladi. Yana bobom yoshimizga qarab har yili bizlarni turli gazeta va jurnallarga obuna qilishni kanda qilmaydi. Shu bois bo'lsa kerak, mutolaani hammamiz yaxshi ko'ramiz. Bobom esa bundan juda quvonadilar. Ularning mammun chehralarini ko'rib, ko'nglimiz yorishadi. U kishini ko'proq xursand qilgimiz keladi.

Kelajakda bilim cho'qqilarini egallab, bobomning ko'ngliga munosib farzand bo'lishga va'da beramiz.

Saida OMONJONOVA,  
Toshkent shahri, Yashnobod tumanidagi 145-umumta'l'm  
mabitining 2-sinf o'quvchisi

Adashmasam, o'sha kezlar birinchi yo ikkinchi sinfda o'qirdim. Yon qo'shnimiz Abdug'affor tog'a o'g'ilchasingning to'ida kurash musobaqasini o'tkazishi haqidagi xabar bir zumda butun mahallaga tarqaldi.

Biz yoshlar kun sanashga tushdik. Nihoyat, karnay-surnay sadolari ostida to'y boshlanib, barchamiz intizor bo'lib kutayotgan kurash musobaqasi boshlandi. Asta-sekin kichik sovrinlar egalariga tarqatilgach, eng katta sovrin uchun bellashuv boshlandi. Qo'shni mahalladan kelgan polvonning qo'li baland kelib, asosiy sovriniga da'vogarligi ma'lum bo'lib qoldi.

# Bobolar jasorati - ibrat maktabi



Abdulla o'zi o'qiyidan Uchtepa tumanidagi 75-umumta'l'm maktabidan qaytgach, o'qituvchisidan eshitgan gaplarini ota-onasiga aytди. Shunda otasi Rustamjon aka go'zal poytaxtimiz markazida bунyod etilgan muazzam Xotira maydonida vatandoshlarimizning aniq ism-shariflari, manzillari, dafn etilgan joylari marmar toshlarga zarhal harflar bilan

## KITOB O'QISH YAXSHI EKAN

Men 1-sinfda o'qiyman. Ustozim Nilufar opa Ibragimovadan yozish, o'qish, matematika, odobnoma, rus tili, ingliz tili fanlarini puxta o'rganishga harakat qilyapman. Barcha fanlardan a'lo baholar olyapman.

Rapqon qishlog'imizda katta bog'imiz bor. Bo'sh vaqtlarimizda akam Elmur va Madamin bilan daraxtlarni parvarishlashda otamga yordamlashamiz.

Yaqinda otam menga Malik Murodovning «Oltin sandiq ochildi» nomli kitobini sovg'a qildilar. Uni mazza qilib o'qiyapman. Buvijonimga ham o'qib beryapman. Kitob o'qish menga yodqi. Endi har oyda 1 ta yangi kitob o'qishni rejalashtirib oldim. Tengdoshlarimga ham kitoblarni asrab-avaylab, qunt bilan o'qishga odatlaning, degim keldi.

**Nilufar MAHMUDOVA,**  
Farg'onan viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'l'm  
maktabining 1-«V» sinf o'quvchisi

## TOSHKENTDA «FAVVORALAR SAYLI»

Musiqaga yangrayapti. Chiroliy musiqaga oqqush misol raqsga chog'langan favoralarini ko'rib, ko'zlarining quvnaydi. U ohangga mos ravishda birdaniga ko'pirib, tezlashib, dam sekinlashib, mavjilab qoladi. Yurtimizda mana shunday musiqali favoralarning ko'payishi kishiga olam-olam zavq ularashmoqda...

Musiqali favoralar atrofida diltortar qo'shiqlar yangrab, bolalarning sho'x-shodon qiyqiriqlari qulooqqa chalinadi. Ayniqsa, rang-barang chiroqlar yog'dusidagi favoralarini ko'rib, zavqqa to'lsan.

Pokazlik ramzi bo'lgan billur tomchilar odamlarning qalbiga, diliiga poklik va shukronalik hisslarini ularashdi. Har bir inson shu Vatanning erkin va ozod farzandi ekanidan yanada ruhlanib, qalbida faxr-iftixor tuyg'ulari favoralardagi jajji to'lqinlar misol mavjilishi, shubhasiz.

**Odina SAHOBIDDIN gizi,  
poytaxtimizdagи 96-umumta'l'm  
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi**

7-«A» yozib qo'yilgani, endilikda sinf rahbari bu maydon muqaddas Shahlo opa Saidova ziyoratgohlardan biriga darsni yakunlar ekan, shanba kungi tarbiyaviy aylangani haqida soat Xotira maydonida so'zlab berdi. O'g'lim, sening o'tkazilishini e'lon qildi. bobong Muham-O'quvchilar bu xabardan madjon Hotamov ham quvonib, 9-may - Xotira 1939-yilda majburiy va qadrlash kuniga harbiy xizmatga bag'ishlangan tadbirga chaqirilib, 1941-yildan 1945-yilgacha fashist bosqinchilariga qarshi tayyorlana jangda qatnashganini boshlashdi. jangda qatnashganini bilasan-a? - deb so'radi.

- Ha, oilaviy albomda boboming Ikkinchiji jonon urushida uchuvchilar kiyimida tushgan fotosuratlarini ko'rganman. Ular uchuvchi bo'lganmi?

- Urushning dastlabki kuni uchuvchilar yetishmagan. Shunda bobong uchuvchilar tayyorlash kursiga kirib o'qigan, harbiy texnikani mukammal o'zlashtirgan. Erishilgan g'alabada bobongning ham o'ziga yarasha hissasi bor. U kishiga 1994-yilda «Jasorat» medali ham bejiz berilmagan.

Dadasidan bu gaplarni eshitgan Abdullaning qalbida cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ulari jo'sh urdi. Tarbiyaviy soatda sindoshlariga bular haqida gapirib berishni ko'ngliga turgdi. ...Xotira maydoni odamlar bilan gavjum.

Tevarak-atrof yashillikka burkangan, manzara nihoyatda chiroyli, hammayoq ozoda. Anvoi gullar barq uring ochilgan, nafis bo'yulari dimoqqa xush yoqadi. Motamsaro ona haykalini ziyorat qilib, poyiga gullar qo'yigan 7-«A» sinfi o'quvchilarini noan'anaviy darsni boshlashdi. Ustoz ularga Yurtboshimiz tashabbusi bilan e'lon qilingan 9-may - Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida 16 yildan buyon keng nishonlanib kelinayotgani, xotirlash va qadrlash tushunchalarasi asl milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan bizga o'tib kelayotgan insoniy urf-odatlarimiz, fazilatlarimizga to'liq hamohangligi bilan ahamiyatlari ekanligi haqida to'xtaldi.

Shuningdek, o'quvchilar 34 jilddan iborat «Xotira kitobi» nashr etilgani, bu kitoblarda 430 mingdan ortiq vatandoshlarimiz to'g'risida ma'lumotlar jamlanganini bilib olishdi. Otabobolarimiz jasorati, matonati, Vatan va millat oldidagi burch tuyg'usini yurakdan anglab, jang-u Jadallarda qahramonlik ko'satsaganliklari yosh avlod uchun katta saboqdir. O'quvchilar tarixiy voqeletidan to'g'ri xulosa chiqarib, yurtimizda barqaror tinchlikni ta'minlash, Istiqlol qadriga yetish, urush olovini yoquvchi yovuz kuchlarga qarshi qat'iy kurashish davr taqozosini ekaniga amin bo'lishdi.

**DILOROM tayyorladi**

Bizga  
mektub yo'llabsiz...

## BILIMDONLAR MAHORATI

Turli fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirayotgan, namunali xulq-atvori bilan ajralib turadigan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida Sarvina Davlatova, Sobir Burhonov, Shahnoza Ibragimova, Zebo Eshdavlatova, Maftuna Qozoqova, Mohira Burhonova, Nigina G'ofurova kabi o'quvchilarini maktabimiz faxri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu o'quvchilar sport bilan ham muntazam shug'ullanib, maskanimizda tashkil etilgan turli sport to'garaklarining a'zosi hamdir. Ustozimiz Nodir aka Do'stmurodov ulardan ibrat olishimizni alohida ta'kidlaydilar. Men ham maktabdoshlarimidan o'nak olishga intilmoqdaman.

**Mohiniso BOBOQULOVA,**  
Samarkand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi  
18-umumta'l'm maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

## SINOV

Unda Visola Meliqo'ziyeva, Nozima Hayitmurodova, Umida Islomova kabilar turli fanilardan muvaffaqiyatlari ishtirot etib, 2-o'rinni egallahdi va diplom bilan taqdirlanishdi. Endi ular bellashuvning viloyat bosqichida ishtirot etishadi.

Shuningdek, maktabimizning raqs to'garagi a'zolaridan Zarina Hayitmurodova va Feruza Ahmedova 1-o'rinni qo'lg'a kiritishdi. Biz maktabdoshlarimizga navbatdagil bosqichlarda omad tilaymiz.

**Mohinur SHOHIMARDONOVA,**  
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi  
38-umumta'l'm maktabi o'quvchisi

Barcha umumta'l'm maktabilarini qatori, bizning ilm dargohimizda ham «Bilimlar belashuvi» bo'lib o'tdi.

## AFSONA VA ERTAKLAR SHAHRI

**Sarlavhamizdanoq gap qaysi shahar haqida ketayotgani haqida payqab oldingiz, chamasi?**  
**To'g'ri topdingiz, bugun Samarcand tumanining Gulobod qo'rg'onida o'z faoliyatini boshlagan «Barkamol avlod» bolalar markazi haqida so'z yuritamiz.**

Markazning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosi Zilola opa Abdusalomova bilan bog'langach, o'quvchilarning yutuqlari haqida suhabatlashdi:

«Barkamol avlod» bolalar markazi yaqinda yangi binoga ko'chib o'tdi. Markazimiz zamona viy jihozlar, o'quv anjomlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlandi. Bu yerda 25 turdag'i to'garak faoliyati yo'lg'a qo'yilgan. 500 nafarga yaqin o'quvchi-yoshlar «Yosh musavvir», «Naqqoshlik», «Bichish-tikish», «Liboslar dizayni», «Kompyuter dizayni», «Mohir qo'llar» singari qator to'garaklarga jalb qilingan.

Ustozlarning sa'y-harakatlari tufayli o'quvchilarimiz hunar o'rganib, turli ko'rik-tanlovlarda qatnashib, yaxshi natijalarga erishmoqdalar.

Jumladan, «Yosh hunarmand» respublika ko'rik-tanlovingi viloyat bosqichida «Mayda plastika» yo'naliishida Jonibek Shokirov 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida ham faol ishtirot etdi. «Nuroniy otaxon va onaxonlarning ibratli hayoti» mavzusidagi fotosuratlar tanlovingi viloyat bosqichida Shahboz Umarovning ishtiroti barchamizni xushnud etdi. Yaqinda tashkil etilgan «Barkamol avlod bolalar ijodiyo festivali»ning viloyat bosqichida «Munchoqli bezak» yo'naliishida esa Daler Rahmonovning 2-o'rinni egallashi markaz o'quvchilarini yanada intilishga, izlanishga ilhomlantirdi.

To'garak rahbarlarimizdan U. Siddiqova, F. Muzaffarov, D. Akobirova, Z. Zokirova, K. Ziyoyeva, G. Ahrorova, M. Hamidova, G. Hidirova, D. O'limasovlar o'quvchilarining bo'sh vaqtlariga mazmun bag'ishlab, kelgusida komil inson bo'lib voyaga yetishlariga o'z hissalarini qo'shmaqdalar.

Bugun maqsadi va maslagi bir bo'lgan samarcandlik yoshlarning yutuqlari haqida bilib oldingiz.

**Siz bo'sh vaqtinizi qanday o'tkazasiz? Sizda ham yutuqlar bisyor bo'lsa kerak? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.**

Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi.  
**N. SULTONOV** o'lgan suratlar

## RANGLAR BILAN DILLASHUV

Yaqinda poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 312-umumta'l'm maktabida estetika va san'at fani bo'yicha «Mahorat muktabi» seminar bo'lib o'tdi.

Tadbirda soha xodimlari hamda tumandagi 30 ta maktabdan barcha tasviriy san'at fani o'qituvchilari ishtirot etishdi. Dastlab institut o'qituvchilari qatnashchilarga o'zar hamkorlik va uning istiqbollari, tasviriy san'at sohasidagi yutuq va muammolar haqida so'z yuritdilar. Shuningdek, seminar ishtirotchilari bilan savol-javob tarzida qiziqarli davra suhbati tashkil etildi. Tuman «Mahorat muktabi»ning



tasviriy san'at va chizmachilik y o'nalishi bo'yicha trener-o'qituvchisi Muhamarram Sultanmurodova «O mmaviy bezak san'ati» m a v z u s i d a ochiq dars o'tib berdi.

- Bu kabi seminarlarning tashkil etilishi fan o'qituvchilarining bilim va malakalarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, - deydi tuman XTMFTTE metodisti Lutfiniso Fozilova.

Tadbir davomida mazkur matabning musiqa fani o'qituvchisi Dildora To'xtaboiqieva rahbarligidagi 3-«V» va 5-«A» sinflaridan iborat xor jamoasi «Balalarни asrang» deb nomlangan ajoyib musiqliq chiqishlarini namoyish etdilar. Shuningdek, 5-6-sinflar o'rtaida «Sog'lom ona va bola» yili mavzusida asfaltga rasm chizish musobaqasi bo'lib o'tdi.

**Jamoliddin ABDULLAYEV**

## OSOYISHTALIK QADRI

**Toshkent viloyatining Keles qishlog'idagi 50 - umumta'l'm muktabida mahallasining keksa avlod vakillari bilan uchrashuv tashkil etildi.**

Suhbat chog'ida faxriy ustozlar o'quvchilarga qishloq tarixi, ilm sehri va hozirgi tinch, osoyishtalik kunlaming qadriga yetish haqida so'zlashdi.

Omon Sobirjonov, Sherzod Jahongirov, Zabira Qodirova kabi ustozlar mehmonlarning ibratlari hikoyalari uchun alohida minnatdorchilik bildirishdi.

Mehmonlar muloqotchog'i yig'ilganlar ning turli savollarga javob berib, kechaga o'zgacha fayz ulashishdi.

**Muzaffar AHMEDOV**



Mushtariy

## OPA-UKALAR TENGDOSHLARIKA ORNAK

Mushtariy Adhamova Toshkent shahri, Yashnobod tumanidagi 204-umumta'l'm muktabining 9-sinf o'quvchisi. U rus hamda hind tillarini mukammal o'rganmoqda. She'rlari gazetamizda chop etilgan. Raqsga qiziqadigan onasi Dilfuza opa unga yoshligidan bu san'atga qiziqish uyg'otgan. Avvallari suzish, gimnastika bilan shug'ullanigan bo'lsa, endilikda ustozi shotokan karate-do yo'naliishi bo'yicha 6-DAN qora belbog' sohibi Xo'jamkul Xo'jaqulovdan sportning bu yo'naliishi bo'yicha saboq olmoqda.

Shamsiddin Mushtariyning ukasi. U ham shu matabning 8-sinfida o'qyidi. 6 yoshligidan sport bilan shug'ullanadi. Gimnastika bo'yicha 2013-yili Germaniyada bo'lib o'tgan xalqaro sport musobaqasida faxrli o'rinni egallagan. Ayni paytda karate va suzish sporti bilan shug'ullanaydi.

Shamsiddinning singlisi Muslima esa 4-sinfda o'qyidi. 2 yoshidan katta sahnaga chiqqan jajji qizaloq qo'shiq kuylaganda, tomoshabinlar qarsak chalishib, uning chiqishini qayta-qayta so'rashgan ekan. Biz yosh iste'dod sohibasini ham suhabatga chorladik.

- Ona tili, matematika, rasm fanlari jon-u dilim. Ota-onam hamisha: «Hozir sizlarning asosiy vazifangiz a'lo baholarga o'qish», deb uqtirishadi. Bo'sh vaqtlarimizda oilamiz bilan «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qiyimiz.

Ulug' maqsadlar sari izlanishdan tolmaqan insonlar o'z niyatlariga yetib, el ardog'iga sazovor bo'lishgan. Iстиqlol farzandlari bo'lgan Mushtariy, Shamsiddin, Muslimaxon yurtimiz farovonligi uchun o'zining hissasini qo'shadigan munosib o'g'il-qizlar bo'lib voyaga yetishlari, shubhasiz. Chunki ular yoshlikdanoq aniq maqsadlarni ko'zlab, dadil odimlamoqdalar.

**Nodira NAZAROVA**

**Shamsiddin**



davlat jahon tillari universiteti  
qoshidagi 3-akademik litseyida xorijiy tillarni  
o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali  
foydalanimoqda. Bu o'rinda o'zaro tajriba almashishning eng  
yaxshi vositalaridan hisoblangan «Ingliz tili oyligi»da  
ochiq darslarning tashkil etilishi ijobji  
natijalar bermoqda.

Navbatdagi  
ochiq dars Advertisement (reklama) mavzusida akademik litseyning  
3-bosqich 307-guruh o'quvchilari ishtirokida  
noan'anaviy interaktiv, ya'ni aktiv o'quvchi,  
passiv o'qituvchi usulida tashkil etildi.

Unda mavzuni qabul qilish, holatini  
osonlashtirish maqsadida o'quvchilar  
darsni quvnoq boshqotirma, ya'ni qiziqarli  
matematikaga oid masala bilan boshlashdi.

## LESSON 85

# INGLIZ TILIDA OCHIQ DARS

Ochiq dars mavzusiga o'tilgach, slayd-ko'rgazmalar namoyish qilindi. O'qituvchi zamonaviy o'qitishning «Work in groups» usulidan foydalangan holda o'quvchilarni guruhlarga bo'ldi va ular «Luster» metodidan foydalaniib, mahsulot-

qismida o'quvchilarga «Which advert» sharti asosida tinglab tushunish (listening) vazifasi berilib, e'lon qilingan har xil reklamalardagi mahsulot turlarini topish vazifasi berildi.

Keyingi vazifa gapirish ko'nikmasi (speaking) ni rivojlantirish bo'lib, unda guruhlarga tarqatilgan rasmlar asosida ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni sahna ko'rinishi orqali reklama qila olish mahorati sinab ko'rildi.

Ochiq dars davomida guruhlar o'tasida bahs-munozara o'tkazildi.

Dars so'ngida faol ishtirok etgan o'n nafar o'quvchi turli nominatsiyalar bo'yicha taqdirlanib, ularga maxsus sertifikatlar taqdim etildi.

**Aziza NODIROVA, Gulnora OTAJONOVA,**  
**O'zDJTU qoshidagi 3-akademik**  
**litsey o'qituvchilari**

## DISCUSSION OF THE SUN AND THE WIND (Quyosh va shamol bahsi)

Once it was happened that there was a beautiful contest between the sun and the wind. It was to see which of the two was stronger than the other.

The wind was very proud of itself and its prowess. It said, «Even the mighty clouds bow before me. They know that I can drive them away. And the clouds can envelop you. So you are a small thing before me». The sun said, «It is the time that will tell you who is stronger of the two».



Soon they saw a man who was wearing a coat. The sun said, «Let us see who makes the man to take off his coat».

The wind tried first. It blew harder and harder. But the man instead of removing his coat, wrapped it more and more. So, the wind failed.

Now it was the turn of the sun to try its strength. It began to shine. It became hotter and hotter. Fiercer and fiercer. Ultimately, the man felt obliged to remove the coat. The wind lost and the sun won.

Pride comes before a fall.

## CONTINUE THE CONVERSATION... (Suhbatni davom ettiring...)

Fill in the missing words in the following drawings. Choose the phrases from the ones below:

- a) Yes, of course  
b) So do I

- c) Oh, I hope not!  
d) Very well, thank you

How are you?




Would you like some chocolate?



It looks like rain.



I hope Uzbekistan wins in this season.



Prepared by Dinora SHAKIROVA,  
Painter: YOQUBBEK

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

## LESSON 85

# INGLIZ TILIDA OCHIQ DARS

larni iste'molchilarga tez va sifatli yetkazish hamda ularning xotirasida uzoq vaqt qolishini ta'minlaydigan reklamalamiy joylashtirish joylari bo'yicha taqdimot qilishdi. Darsning navbatdagi

## DANDY AND DOVE

Shukrullo ABDULLAYEV



Dandy asked:

- Whom do you like?
- Dove:
- I like the Sun, - he answered.
- Why? - she asked him again.
- It is very nice and it warms the whole world. And it helps us when we fly.
- Whom don't you like? - Dandy asked.
- I don't like wind because it can break our nests when it gets angry.

Translated by Ma'suma ILMURATOVA

## WORD SEARCH

Find and separate the words in this table which belong to each row.

Colours:  
Black

Flowers:  
lily

Trees:  
pine

P	L	W	E	E	P	I	N	G	W
F	I	R	O	W	H	I	I	E	I
B	L	N	L	I	L	T	E	Y	L
L	A	L	K	P	Y	U	E	G	L
A	C	K	M	Q	O	R	A	N	O
Y	E	L	L	O	W	P	E	C	W
P	R	O	S	E	T	U	L	E	K
I	N	E	C	Y	P	I	L	A	N
D	A	F	F	O	D	I	L	B	R

Ziliola JAMOLOVA,  
Jizzakh region

## RIDDLES (Topishmoqlar)

In the morning,  
In the evening.  
Do it yourself,  
For your health.

Always clean your –  
Face, hands and legs.  
What is it with nice smells?  
Try to find, you use it every day.



Kumush TURG'UNOVA,  
the pupil of school number 54 in Urtachirchik district, Tashkent region

## WORD SCRAMBLE

Seyretday

Yesterday

dcede

posimsble

letesionvi

lihoady

Penexsive

2-may

2016

Dono AHMEDOVA

Navoiyini o'rganamiz

## «ARBA'IN» – AXLOQIY MASALALAR MAJMUI

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodini o'rganish, undagi axloqiy-ma'rify qarashlar bilan yosh avlodni muntazam tanishitirib borish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Shu bois, yurtimizda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Alloma «Vaqfiya», «Arba'in», «Sirojul muslimin», «Munojot» kabi asarlarida halollik, to'g'rilik, adolat masalalarini mahorat bilan ochib beradi. Uning «Arba'in» («Qirq hadis») asari, mana necha asrlarki, insonlarni ezigulikka, poklikka va halollikka chorlaydi. Sharq mumtoz adabiyotida arba'in yozish an'anasi Navoiygacha ham bo'lgan. Arba'in – arbacha «arba», ya'ni «qirq» so'zidan olingen bo'lib, qirqa mashhur, sahib hadis mazmunini she'riy vaznda, aniqrog'i, bir ruboysi ifodalash san'atini anglatgan.

Bu hadislarda insonlar yaxshilikka chaqirilib, yomon illatlardan qaytariladi, ular insonning hayot va jamiyatdagi vazifasini anglatadi. Masalan, «Insonlarning eng yaxshisi insonlarga foydasi tegadiganidir», degan hadisni Alisher Navoiy turkiy tilida shunday ifoda etadi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?  
Eshitib, aylashub har af'andin.  
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,  
Yetsa ko'prak ulusqa na'f andin.

Ushbu sharh orqali insonning ulusga – jamiyatga xizmat qilishi ulug'lanadi.

Xulosa o'rniда shuni aytish kerakki, bugungi globallashgan, taraqqiyot va texnika asrida yoshlaringning intellektual salohiyatlari fan yutuqlari bilan cheklanliq qolmay, balki badiiy adabiyotga mehr qo'yishlari, Navoiy, Bobur va Qodiriy singari ajdodlarimiz qoldirib ketgan boy meroslardan unumli foydalaniш, «Arba'in» singari axloqiy, tarbiyaviy adabiyotlarni mutolaa qilish koni foya bo'lishi, shubhasiz.

Nodira MIRAHMADOVA,  
Xadichai Kubro ayol-qizlar o'rta maxsus  
Islam bilim yurti o'qituvchisi

Ota odadtagidek ishdan kech qaytdi. Horg'in, toliqqan gavdasini arang sudrab ostona hatladi. Bo'sag'ada uni mijja qoqmay, ko'zlarini to'rt bo'lib intiq kutayotgan besh yoshli o'g'li qarshi oldi.

– Salom, dada! – dedi u quvonchdan ko'zlarini porlab.

– Salom, bo'talog'im, haliyam uxlamadingmi?

– Yo'q, sizni kutayotgandim, – hovliqib dedi bola. – Dada, bitta savol bersam maylimi?

– Mayli, mayli, o'g'lim.

– Bir soatda qancha pul topasiz? – ko'zlarini pirpiratib, bolalarga xos soddalik va samimiyat bilan so'radi u.

Kutilmagan savol avval otaning kulgisini qistatdi, so'nng jahlini chiqardi.

– Bu nima deganligi? Nega bunga qiziqib qolding?

– Dada, iltimos, aytu qoling, bir soatda qancha pul topasiz? – yoq tirab turib oldi bolakay.

O'g'lining javdirab tikilayotgan beg'ubor ko'zlaridan otaning ko'ngli yiib ketdi.

– Bir soatda 20 dollar ishlayman, qo'zim, – javob qildi u bolasining boshini silab.

– Yashasin! – qichqirib yubordi



kichkintoy. – Dada, menga 10 dollar qarz berib tura olasizmi?

Ishdan charchab kelgani, o'g'lining g'alati savoli va endi pul so'rashi bir bo'ldi-yu, otasi tutaqib ketdi.

– Ha, tag'in nima o'ylab topding? Qayerdag'i keraksiz o'yinchoniq sotib olish uchun dadam 10 dollar beradi, deb o'ylasang, chuchvarani xom sanabsan, zumrashal. Men bu pulni topish uchun qanchalik edi. «Chindan ham o'g'lim shu 10

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 62 yilligi munosabati bilan Andijon viloyati, Marhamat tumanida aprel oyi «Muhammad Yusuf oyligi» deb e'lon qilindi.

## SHOIRGA EHFIROM

Oylik doirasida tumandagi barcha umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, korxona, tashkilot va muassasalarda shoir xotirasiga bag'ishlangan she'rxonlik kechalarini hamda davra suhbatlari yushtirildi.

Tuman xalq ta'limi bo'limi qoshida tashkil etilgan shoir nomidagi «Yosh ijodkorlar» to'garagi a'zolari haftaning har shanba kunlari «Turon» o'quv markazi bog'ida to'planishib, shoir she'rleridan namunalar o'qishadi, Muhammad Yusuf she'harini yod aytish bo'yicha o'zaro mushoira tashkil qilishadi. Mazkurbog'dashoirtavallukundan xalq sayli yushtirildi. Sayilga respublikamiz barcha hududlaridan adabiyot ixlosmandlari tashrif buyurishdi. Tadbirda Shoiraxon Yo'lichiboyeva (43-umumta'lim maktabi), Oysanam G'ulomjonova (40-umumta'lim maktabi), Zulkumor Orifjonova (3-IDUM) shoir qalamiga mansub

hamda o'z ijod namunalardan o'qib berishdi. Mehmonlar tadbir doirasida shoir dafn etilgan qabristonni ziyorat qilishdi. So'ng'ra Muhammad Yusuf o'qigan 25-umumta'lim maktabida tashkil etilgan muzey hamda u tug'ilib o'sgan qishloqda barpo etilgan Xotira bog'ida bo'lischdi.



Bu kabi xayrli ishlarni tashkillashtirishda tuman xalq ta'limi bo'limi uslubchisi Abdurahim Bozorboyevning sa'y-harakatlari alohida ta'kidlash joiz. Tadbir yakunida mehmomlarga yosh ijodkorlarning yangi nashrdan chiqqan she'riy kitoblari sovg'a qilindi.

N. QIDIRALIYEV

## MUNISIM, QADR DONIM

Boshimizda parvonadir,  
Mening aziz mehribonim.  
Kecha-yu kunduz yonadir,  
Ham munisim, qadr donim.

Yonib yashar doimo,  
O'ksitmasdan farzandan.  
Yurtga foya bersin, deb,  
Ulg'aytirar dilbandin.



Anglab oling, onanig  
O'gitlari sizga qarz.  
Tinglang uning so'zlarin,  
Farzand uchun erur farz.

Volidangiz azizdir,  
Asrang og'ir yumushdan.  
Qimmat eru siz uchun,  
Oltin ila kumushdan.

Vazira MARDIYEVA,  
poytaxtimizdagи filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat  
umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

zahmat chekishimni bilmaysan-dal! Qani, hoziroq o'mingga borib yot!

Mo'itirab turgan ko'zlarga yosh qalqdi. Bolakay indamay ortiga o'girilib, xonasiga chiqib ketdi. Ota ham toliqqani bois o'rniga cho'zildi, biroq h a d e g a n d a ko'ziga uyqu kelmadni. Bolasiga b a q i r g a n i uchun ko'ngli buzildi. «Meni u x l a m a y k u t i b t u r g a n i n i q a r a n g . T o p g a n savollari-chi.

Darvoqe, 10 dollar unga nega kerak bo'lib qoladi ekan? Sababini so'ramay urushib berganim yaxshi bo'lindi...». Ota u yoniga ag'darildi, bu yoniga ag'darildi, lekin uyqusi kelmadni. Shu tariqa oradan bir soatcha o'tdi. Bu ahvolda sahargacha uxlolmasligini anglab, o'rnidan turidi. To'g'risi, uning ko'nglini boyagini farzandiga jahl qilgani qiyayotgan edi. «Chindan ham o'g'lim shu 10

dollarga muhtoj bo'lsa-chi. Balki jo'yali sababi bordir...».

U o'g'lining xonasiga tomon yo'naldi. Eshikni sekingina o'chib:

– Uxlaysapsanmi, bolajonim? – deb so'radi.

– Yo'q, uyg'oqman, dada.

Karavotga yaqinlashib unga o'tirdi-da, o'g'lining sochlarni silay boshladi.

– Boya senga jahl ustida qattiq gapirib yubordim. Mendan xafa bo'laimingmi? Ba'zan kattalar ham xato qilib turishadi. Mana senga 10 dollar. Kel, endi eski ginalarni unutamiz...

Kuddi shuni kutib turgandek bola o'rnidan sakrab turdi. Dadasining yuzidan cho'lpillatib o'pdi-yu, pulni olgancha chopqillab borib kiyim javonidan bir dasta g'ijimlangan pullarni chiqarib, ularga qo'shib qo'ydi. O'g'lining harakatlarni kuza-tib turgan ota uni savolga tutdi.

– Shuncha puling bor ekan, mendan tag'in 10 dollar so'raganing nimasi, bo'talog'im?

– Pulim borku-ya, ammo yetmasdi-dal! Mana endi ropa-rosa 20 dollar bo'lidi. Dadajon, jon dada, men bir soat vaqtinigini sotib olmoqchiman. Faqat yo'q demang, iltimos. Mana shu pullarim hammasi sizga. Ertaga ugya vaqtliroq keling, sizni kutaman...

Rus tilidan Jamshid MATYOQUBOV tarjimasiga

## BAYROG'IMIZNI KO'KKA KO'TARSAM...

Biz sog'lom bola deganda, ham ma'naviy, ham jismoniy jihaddan barkamol bolani tasavvur etamiz.

Mustaqillikning birinchi yillardan boshlab yurtimizda sog'lom ona – sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'naliishiga aylangani, keng ko'lami umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlar jahon miyosidasi ham tan olinyapti. Sportning turli sohalarida biz yosh sportchilar qo'liga kiritayotgan yutuqlarimiz fikrimizning yorqin misolidir.

Tumanimizdagi ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan internat, rassomlik va sport, musiqa va san'at maktabi, futbol maydonlari biz yoshlar ixtiyorida. Men ham tumanimizdagi 14-bolalar va o'smirlar sport maktabiga qatnayman. Unda karate, stol tennisi, futbol, voleybol, basketbol, badiiy gimnastika, shaxmat-shashka, milliy kurash, yengil atletika, og'ir atletika kabi sport turlaridan mashg'ulotlar olib boriladi. Men. karate bilan shug'ullanayapman. Qisqa fursat ichida ko'plab yutuqlarga erishdim. 8 karra viloyat hamda 3 karra O'zbekiston championi bo'ldim. Ustozim Abdulhoshim Bozorov murabbiyligida Osiyo va jahon arenalarida faxrli o'rnlarni qo'liga kiritib, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarish eng katta orzum.

**Malohat JO'RAYEVA,**  
Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi  
Tibbiyat kolleji o'quvchisi

## DUGONALAR YUTUG'I

**Zarina Nosirjonova**  
Furqat tumanidagi

**2-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf,  
Dinara Sattorova 8-«V» sinf o'quvchilari.**

U yengil atletika bo'yicha mamlakat championi. Yosh sportchining shu kunga qadar qo'liga kiritgan yutuqlari talaygina. Joriy yilning mart oyida u poytaxtda o'tkazilgan yengil atletika bo'yicha Respublika birinchiligidagi 1-o'rinni egalladi va oltin medal bilan taqdirlandi. Dinara esa badiiy gimnastika bo'yicha O'zbekiston championi. U qatnashgan musobaqa borki, yosh sportchining g'alabasiz o'tmaydi. O'tgan yili «Quvnoq karvon», «Movi gumbaz», «Oltin kuz» kabi ko'riktanlovlarda 1-o'rinni qo'liga kiritdi. Ayni chog'da u «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan tadbirda ishtirot etish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

**Shukrulla G'ULOMOV**

## BUXOROLIK PAHLAVONLAR

Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli Olot tumanidagi 7-Olimpiya sport maktab-internatida hozirda 150 nafar tarbiyalanuvchiga sportning dzyudo, kurash turlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. O'tgan yil davomida o'quvchilar Respublika championatlarida jami 25 ta medalni qo'liga kiritdi. Shuningdek, jahon va Osiyo championatlarida 3 ta, xalqaro turnirlarda 27 ta, Respublikada o'tkazilgan turnirlarda 27 ta medalga sazovor bo'lildar.

Joriy yil boshidan sportchilar erishgan yutuqlarga nazar soladigan bo'lsak, Buxoroda bo'lib o'tgan 1999–2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtaсидаги дзюдо

bo'yicha mamlakat championatida Murodjon Yo'idoshev 55 kg vaznida 2-o'rinni egallagan bo'lsa, Samarcanda bo'lib o'tgan Respublika championatida Nasrullo Shokirov xuddi shu vaznda 1999–2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtaсида tengsizligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, Sirdaryoda o'tkazilgan 2000–2001-yillarda tug'ilgan o'g'il bolalar o'rtaсида O'zbekiston championatida Ahmed Beshimov kurash bo'yicha 1-o'rinni zabit etdi. Otabek Haydarov esa 36 kg vazn bo'yicha 2003–2004-yilda tug'ilgan tengdoshlari o'rtaсида g'oliblikni qo'liga kiritdi.

Ushbu yutuqlarni qo'غا kiritishda To'rayevlar suluosi murabbiyarinining mehnati katta ekanligini alohida e'tirof etish lozim.

**Ulug'bek SAIDOV**

Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabida ham turli fan va sport to'garaklariga katta e'tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilgan xayrlar ishlar samarasini o'laroq, maskan o'quvchilar ko'plab musobaqalarda yetakchi o'rnlami egallab kelmoqda.

Yosh sportchilardan 6-«Z» sinf o'quvchisi

Akbarshoh Rahmatullayev o'tgan davr mobaynida o'tkazilgan turnirda 20 kg vaznda sakkiz yoshi o'quvchilar orasida g'olib bo'ldi. U Asakada bo'lib o'tgan xotira turnirida o'z vazn toifasida birinchilardan bo'ldi, shuningdek, universal jang bo'yicha Andijon shahri birinchiligidagi hamda klublararo o'rtoqlik uchrashuvida g'oliblikni qo'iga kiritdi.

Akbarshohning sinfdoshlaridan biri Hojiahmadbek Kolmirzayev esa Oltinko'l tumanida o'tkazilgan taekvando bo'yicha viloyat championatida 33 kg vazndagi bolalar o'rtaсида 1-o'rinni qo'iga kiritdi. 2016-yil 10-aprelda «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi asosida bo'lib o'tgan viloyat championatida o'z vazn toifasida g'olib bo'ldi.

Faoi sportchilar ro'yatida 6-«Z» sinf o'quvchilardan Faxriyor To'xtasinov, Mashhurbek Asranovning nomini ham ko'ramiz. Yo'lichivoj Karimov, Anvarbek Sapayev, Dilmurodjon Abdurazzoqov singari fidoyi murabbiylar shogirdlar muvaffaqiyatidan mammun.

**Nozima JAVHAROVA**

## BELLASHUVLAR MAROQLI O'TDI

Unda Toshkentning

«Binokor» hamda Qozoq istonning «Armada» jamoalari o'zaro bahs olib borishdi. Ikti kun davomida o'tkazilgan uchrashuvlarda 6–8 va 10–12 yoshli bolalar 2 tadan o'yin o'tkazishdi. E'tiborli, jami o'tkazilgan 4 ta uchrashuvning barchasida yosh xokkeychilarimiz raqiblaridan ustun keldi.

Poytaxtimizda 8 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtaсида o'zbek jang san'ati bo'yicha «Kamolot» kubogi» musobaqalari bo'lib o'tdi.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda O'zbek jang san'ati federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan musobaqada yuzdan ziyod qiz bo'lsa, Samarcanda bo'lib o'tgan respublikalari o'z mahoratini namoyish etdi.

Musobaqada vazn va yosh toifalariga ko'ra Go'zal Peysenova, Sevinch Hotamova, Farangiz Valijonova kabi sportchilar shohsupaga ko'tarildi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Buning natijasida sport mashg'ulotlariga qatnayotgan qizlar safi kengaymoqda.

**Shavkat KAZAKBAYEV**

Poytaxtimizdagi «Next» savdo maj-muasidagi «Ice Rink» muz saroyida xokkey bo'yicha yoshlar o'rtaсида xalqaro o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazildi.





Navoi viloyati, Nurota tumanidagi 26-umumta'llim maktabining 7-sinf o'quvchisi Dilshoda MAMADYOROVA chizgan rasmilar.

Aziz o'quvchilar, sevimli gazetangiz orqali «Onajonim tabiat», «Boylikni bolalikdan asrang» kabi ko'plab tanlovlard e'lon qilinganligidan xabaringiz bor. Quvonarlisi, qo'limizdag'i navbatdagi maktub ham «Onajonim tabiat» tanloviga yuborilgan bo'lib, unda jonkuyar ustozlarimizdan biri Siz aziz o'quvchilar bilan g'oyibona bo'lsa-da, tabiat haqida suhabat qurishni niyat qilgan. O'yaymizki, ularning fikrlari sizni aslo befarq qoldirmaydi.

## BEBaho BOYLIGIMIZ

Ona tabiat go'zalligi, bebaho boyliklari – umumxalq mulki. Shuning uchun ham uni himoya qilish, ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Afsuski, bugungi taraqqiyot asrida insonlarning unga noto'g'ri munosabatlarda bo'layotgani tutayli o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq unumdarligi, chuchuk suv va qazilma boyliklarini muhofaza qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, yirik sanoat hududlarida ifloslangan suv, havo va turli chiqindilar bilan zaharlangan tuproq odamlar salomatligiga hamda ekologiyaga katta

zarar yetkazmoqda. Shuning uchun tabiat sofligini saqlab qolishimiz, yashillik dunyosidan oqilona foydalanishimiz va bu ishga barchamiz mas'ul bo'lmog'imiz lozim. Yana bir gap. Ona tabiatga mehr odamlarni sayohatga chorlaydi, ekoturizmni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Organizmning jismonan chiniqishini ta'minlaydi.

Shunday ekan, keling, aziz o'quvchilar, ona tabiat musaffoliyi yo'lida birlashaylik!

Shahlo TURSUNXO'JAYEVA,  
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

Suv – hayot manbai.  
Uni isrof qilmaslik kerak!

## SO'Z O'YINI – ZO'R O'YIN

### SO'ZBOYLOVCHI

So'z sehrli deydarlar,  
Demak tilchi – sehrgar.  
«S» o'rninga «M» qo'ysa,  
«Sehr» do'nar «mehr»ga.

«A»ni olib bir zumda,  
«Ayoz»ni «yoz» qiladi.  
«Oz» oldiga «S» yozib,  
Ajoyib «soz» qiladi.

Uchiradi «qovoq»ni,  
«Ari» qo'yib yoniga.  
(Qovoqari)  
Yurgizadi «yoq»ni,  
Qo'shib «sakkiz» soniga.  
(Sakkizoyoq)

Turli gullar ko'p, biroq,  
«Karnay»ni ham «gul»  
qilar. (Karnaygul)  
Tartib bilan yuring, deb,  
«Yo'l»larga «chiroq»lar.  
(Yo'lchiroq)

So'zboylovchi so'z saylab,  
Ko'ngillarni xushlasin.  
Lekin sira ko'z boylab,  
«Nay»ga «rang»ni qo'shmasin.  
(Nayrang)

### HARFLARGA HAZIL(LASHMA)

«Nina»ga «chi»ni qo'shdim,  
(Ninachi)  
Uchib ketdi pirillab.

«Kit»dan «k»ni oluvdim (It)  
Jahl qildi irillab.

«Tosh»in tashlab toshbaqa  
(Baqqa)

Tilga kirdi «qur»illab.

«Bo'r» bilan «i»ni yozdim  
(Bo'ri)

Qoching endi zirillab.

Ertakdag'i «pari»lar –

«Ari» bo'lib chaqadi.

«Tosh»dan «T» tushib qolar,  
Oh, mazali «osh»da u.

...Ne xayollar kelmaydi,

Bosh harf emas,  
bosh-da bu.

«Zar» o'ralsa «pechak»ka,  
(Zarpechak)

Yashnamaydi, so'ladi.

### TESKARI O'QIGANDA...

«Qo'y»ni ters o'qisang,  
«Yo'q» bo'lib qolar.

«Zog» birdan «g'oz» bo'lib,  
G'o'ddayib olar.

«Kit» esa «tik» holda  
Suzadi sekin.

«Kiyik» va «kuchuk»-chi,  
O'zgarmas lekin.

Qay yondan o'qisang,  
Bir xil «quduq» ham.

Qiziqa, o'zgarmas,  
O'zi «qiziq» ham.

### YOVUV «YOVUV» BO'LMASIN


«Q» o'rninga «F» yozsang,  
«Qil»dan «Fil» paydo bo'lar.

«Gado»ning boshin olsang,  
Albatta, «ado» bo'lar.

«Bulbul»ni «G'ulg'ub» dema,  
«B» o'rning «G» olmasin.

«Z» o'rninga «R» yozma,  
«Ko'z» «ko'r» bo'lib qolmasin.

«S»ni «L»ga almashib,  
Tiniq «Soy»ni «Loy» qilma.  
Harflarni chalkashtirib,  
Gapni poyma-poy qilma.



### BOSH HARFI OLINSA...

Zo'r «sher» «er»ga aylanib,  
«Toy» osmonda «oy» bo'lar.  
Ulkan «tuya» kichkina,  
Qushlarga in-joy bo'lar.

(Uya)

«Buloq» o'ynar «ulooq»day,  
«Quyon» «uyon» boqadi.

### EHTIYOT SHART

«Qop» turibdi «qo'l» bersang,  
«Qo'lqop» bo'lar kerakli.

«Qop»ga «don» qo'shilsami,  
(Qoplion)

Qoch, hovuchlab yurakni.

Tinch «yo'l» ham «bars»i  
bo'lsa (Yo'lbars)

Xavotirli bo'ladi.